



O‘ZBEK TILIDA “BOYLIK VA KAMBAG‘ALLIK” KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Andijon davlat chet tillari instituti ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti

Ibragimov Sirojiddin

Andijon Davlat Universiteti Fakultetlararo chet tillar (ijtimoiy va gumanitar) kafedrası

mudiri professor **Sh. I. Shokirov**

Annotatsiya: Ushbu maqolada barchaga ma’lum bo’lgan, boylik va kambag’allik tushunchalarining leksik-semantik va kognitiv xususiyatlari o’rganiladi. Bu tushunchalarning moddiy va ma’naviy tomonlari ko’rib chiqiladi. “Boylik va kambag’allik” leksemalarini ifoda etuvchi so’z va so’z birikmalari tahlil qilinadi. O’zbek tilida “boylik va kambag’allik” semantik maydonining ma’no guruhlari ifodalab beriladi. Natijada “boylik va kambag’allik” semantikasi atrofiga birlashgan lisoniy birliklar o’zbek tilida 6 ta strukturaviy modellarga ega ekanligi yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: leksema, konsept, semantik, mol-mulk, mo’llik, davlat, moddiy resurs, to’kis, badavlat, qashshoq, tirikchilik, qadriyat, komponent, kognitiv, mikrokonsept, leksik birlik, frazeologik birlik, lisoniy birlik, periferiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются лексико-семантические и когнитивные особенности известных концептов богатства и бедности. Рассмотрены материальные и духовные аспекты этих понятий. Анализируются слова и словосочетания, репрезентирующие лексемы «богатство и бедность». В узбекском языке выражены смысловые группы семантического поля «богатство и бедность». В результате выясняется, что языковые единицы, объединенные вокруг семантики «богатство и бедность», имеют в узбекском языке 6 структурных моделей.

Ключевые слова: лексема, концепт, семантика, свойство, изобилие, состояние, материальный ресурс, богатство, бедность, средства к существованию, ценность, компонент, когнитивный, микроконцепт, лексическая единица, фразеологизм, языковая единица, периферия.



Abstract: This article discusses the lexico-semantic and cognitive features of the well-known concepts of wealth and poverty. The material and spiritual aspects of these concepts are considered. The words and phrases representing the lexemes "wealth and poverty" are analyzed. The semantic groups of the semantic field "wealth and poverty" are expressed in the Uzbek language. As a result, it turns out that the language units united around the semantics of "wealth and poverty" have 6 structural models in the Uzbek language.

Key words: lexeme, concept, semantic, property, abundance, state, material resource, wealth, wealth, poverty, livelihood, value, component, cognitive, microconcept, lexical unit, phraseological unit, linguistic unit, periphery.

Tadqiqot jarayonida biz o‘zbek tilida “boylik va kambag‘allik” leksemalarining etimologik kelib chiqishiga e‘tibor qaratdik. Natijada ushbu leksemalar bilan bog‘liq juda ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlar borligi aniqlandi.

Biz “boylik va kambag‘allik” konseptini E.Begmatov, A.Madvalievlar taxriri ostida chiqarilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zbek tilida “boylik va kambag‘allik” otlari o‘z ichiga turli semantik til ma‘nolarini olib, ko‘p sonli so‘zlar oilasining semantik markazi hisoblanadi. Avvalo biz “boylik” so‘zning lug‘atdagi ta‘rifiga ko‘ra “boy bo‘lishlik, boy mavqei, mol-mulkning yig‘indisi, majmui, mo‘llik” degan ma‘nolarni anglatadi. Shuningdek, ushbu lug‘atning (I-jildi)da ot so‘z turkumiga mansub “boylik” so‘zining quyidagi asosiy ma‘nolari sanab ko‘rsatiladi:

1. Dunyo, davlat, mol-mulk. Masalan: *O‘n olti ming qo‘y, ikki yarim ming yilqi hazilakam boylik emas* (P.Qodirov, YUlduzli tunlar).
2. Tabiiy, moddiy resurslar majmui. *Er osti boyliklari. Moddiy boyliklar. Tabiiy boyliklar. Qazilma boyliklar. O‘lkamiz tabiiy boyliklarini o‘rganish.. ishiga nufuzli olimlarimiz salmoqli ulush qo‘shmoqdalar.* (Gazetadan).
3. Aqliy, ruhiy, ma‘naviy faolyat hosilasi, majmui. . Masalan: *Xalq o‘z tilini eng ulkan milliy boylik sifatida asrash kerak.* (Gazetadan).



4. Iqtisodiy jihatdan mustahkam, hech narsadan kamchiligi, muhtojligi yo‘q, to‘kis, badavlat. Masalan: *Yurt boy bo‘lsa, uning bozori ham to‘kin bo‘ladi*. (U.Normatov, “Talant tarbiyasi”).

Shuningdek, “kambag‘allik” konseptini ham o‘zbek tilida semantik ma’nolarini E.Begmatov, A..Madvalievlar taxriri ostida chiqarilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘rganib chiqdik. Ot so‘ziga mansub “kambag‘allik” konsepti quyidagi ma’nolarni ifodalanishini guvohi bo‘ldik. Kambag‘al so‘zi o‘zbek tiliga fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, uning asl ma’nosi qashshoq, yo‘qsil deb ifodalanadi. Biz shuningdek “kambag‘allik” konseptini ketma-ket ma’nolarini o‘rgandik.

- hayotiy, tirikchilikka zarur narsalarning etishmaslik holati. Masalan: *Bir kuni ona bechorazor yig‘lab, Xudoga nola qildi: “Kambag‘allik qursin, kambag‘allik... E Xudo, qanday gunoh qildikki, bizni bunchalar qaqshatasan?”* (K.YAshin, “Hamza”);
- Yetarli bo‘lmagan; kam, yetishmaydigan;
- ko‘chma s.t. Mushkul yoki ayanchli ahvolga tushib qolgan kishi; sho‘rlik, boyoqish, bechora.

"Boylik va kambag‘allik" tushunchasi nafaqat moddiy holatni, balki insonning ma’naviy qadriyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shunga ko‘ra ushbu tushunchalar ikkiga bo‘linadi:

1. Moddiy boylikni ifodalaydigan leksemalar: *er-suv, binolar, mol-mulk, oltin, kumush, marvaridlar, xazinalar, qo‘ylar, eshaklar, tuyalar, qoramol podasi, xizmatkorlar, qullar, dinar, pulga muhabbat, qullik, qaramli*.

Kambag‘allikni ifodalaovchi so‘zlar: *ayanchli, chaqasiz, qashshoq, yo‘qsil, etishmaslik*;

2. Ma’naviy boylikni ifodalovchi leksemalar: *iymon, o‘z-o‘zini inkor qilish, sevgi, ergashish, dunyoviy erkinlik, donolik, yaxshi nom, shuhrat, baraka, sodiq do‘stlar, yaxshi munosabatlar, fazilat, tinch hayot, mehmondo‘stlik, ulug‘vorlik samoviy xazinalar, qalb xazinalari. yaxshilik, allohning himmati, tuhfası, marhamati, ahillik*.

Ma’naviy kambag‘allikni ifodalovchi leksemalar: *uquvsiz, savodsiz, bilimsiz, bilmasvoy kabi so‘zlar*.

Tahlil davomida olingan natijalaridan kelib chiqib, mantiqiy strukturalar va izohlar namoyishi shuni ko‘rsatdiki, bizda “boylik va kambag‘allik” leksemasi komponentlarining hamma ma’nosini tushuntirish imkoniyati hosil bo‘ldi. Biz



tomonimizdan olingan konseptual belgilar, ularning o‘zaro uzviy bog‘liqligi to‘g‘risidagi axborot, shuningdek “boylik va kambag‘allik” konseptlariining murakkab ichki strukturasining qo‘llanish chastotasini namoyish etdi. Bu, albatta, mazkur konseptlarning nutqdagi amalga oshish xususiyatidir. Demak, mazkur konsept o‘z aksini nutqda topadi.

“Boylik va kambag‘allik” konseptining kognitiv strukturasiga e‘tiborni qaratsak, unda ta’kidlash kerakki, mazkur tadqiqot ob’ekti ko‘plab kichik mikrokonseptlardan tashkil topgan bo‘lib, ular insonning hayotdagi boy va qashshoqlik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Shunday qilib, tadqiqotga tortilgan konsept maydonining strukturoviy tavsifi bizga “boylik va kambag‘allik” konseptlarini namoyish qilishda qo‘llanadigan ko‘plab lisoniy vositalarni ma’lum sistemaga(tartibga) solish imkonini berdi.

Yuqoridagi turli xil lisoniy birliklar funksional-semantik maydon muayyan tuzilishga ega ekanligi isbotlandi. Uning tarkibiy qismlari yadro tarkibiy qism semantik jihatdan sodda va semantik maydonning umumiy ma’nosini o‘z ichiga olgan leksik birlik yoki bir nechta birliklar, markaz - yadroni o‘rab turgan bir qator qatlamlar - semantik jihatdan murakkabroq qiymatga ega bo‘lgan leksik birliklar; periferiya - asosiy ma’nolari bilan boshqa turdagi semantik maydonlarga kiradigan va ushbu sohaning semantikasini ma’lum til birliklari orqali amalga oshiradigan ikkinchi darajali qismlardan iborat bo‘lishi kuzatildi.

Mazkur yondashuvning qo‘llanishi va konseptual tahlilni o‘tkazish, tadqiqot ob’ektini yanada kengaytirish va uni kelajakda qayta ishlash, bizning nazarimizda, hozirgi zamon lingvistikasida metodikani takomillashtirish, semantik va kognitiv yo‘nalishi asosida o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagi “boylik va kambag‘allik” konseptlarining strukturasidan ko‘rish mumkinki, biz ushbu konseptning tilda turli lisoniy vositalar bilan ifodalanishini kuzatdik. Natijada lisoniy birliklar insonning ichki holati, psixologik qobiliyati, fiziologik ko‘rinishi va o‘zini tutishi tilda sifat, ot va fe‘l kabi so‘z turkumlari bilan kelib, shaxsning xarakterini ochib berishi ma’lum bo‘ldi.

Adabiyotlar:

1. E. Begmatov, A. Madvaliyev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. – T.: 2021
2. P. Qodirov. Yulduzli tunlar. – Yangi asr avlodi – Tohkent, 2015
3. U. Normatov. Talant tarbiyasi. – Toshkent, 1980



4. K. Yashin. Hamza. – Toshkent, 1982
5. Ma'rufov Z. M. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent 1981